O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



# NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)*

*Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2023-yil 1-oktabr holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 27 877 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 23 409 ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘sishi 77,5 foizni (jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar 74,5 foiz) tashkil etdi.

## Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar

*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda.*



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

*2023- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda*

### Yillar kesimida soni

| Yil | Soni |
|---|---|
| 2023 | 3 736 |
| 2022 | 4 298 |
| 2021 | 5 038 |
| 2020 | 5 001 |
| 2019 | 4 641 |

### Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbatan (foizda)

| 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|---|
| 18,4 % | 16,7 % | 14,5 % | 11,9 % | 13,4 % |

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

381

18,8 %



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

693

13,6 %



Sanoat

169

10,1 %



Qurilish

1 425

15,6 %



Savdo

148

14,9 %



Tashish va saqlash

187

14,5 %



Yashash va ovqatlanish

89

22,9 %




Axborot va aloqa

80

11,3 %



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

564

8,5 %



Boshqa turlar

2023- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda tashish va saqlash (18 taga), qurilishda (15 taga) oshganligini ko‘rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, qo‘shma korxonalar 3 taga ko‘paygan.

## Shahar va tumanlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Namangan shahar | 945 | 11,0 % | Mingbuloq tumani | 259 | 19,6 % |
| *shundan Davlatobod t.* | *265* | 12,9 % | Chust tumani | 234 | 10,0 % |
| *Yangi Namangan t.* | *235* | 12,3 % | Uychi tumani | 233 | 13,7 % |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 347 | 17,9 % | Kosonsoy tumani | 227 | 13,6 % |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | 308 | 16,5 % | Namangan tumani | 210 | 12,0 % |
| Chortoq tumani | 305 | 17,7 % | Norin tumani | 208 | 14,6 % |
| Pop tumani | 264 | 12,9 % | Yangiqo‘rg ‘on tumani | 196 | 13,2 % |

*2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

2 030

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

5 084

Sanoat

1 669

Qurilish

9 111

Savdo

993

Tashish va saqlash

1 288

Yashash va ovqatlanish

389


Axborot va aloqa

706

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

6 607

Boshqa turlar

2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 27 877 tani tashkil etib, 2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda 2 628 taga oshganligini quyidagi sohalarda korxonalar sonining sezilarli o‘sishi bilan ifodalash mumkin: savdo – 6 656 tadan 9 111 taga (o‘sish 2 455 ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 1 725 tadan 2 030 taga (o‘sish 305 ta), yashash va ovqatlanish – 1 097 tadan 1 288 taga (o‘sish 191 ta).

## Shahar va tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Namangan shahar | 8 601 | Namangan tumani | 1 754 |
| *shundan Davlatobod t.* | *2 057* | Chortoq tumani | 1 727 |
| *Yangi Namangan t.* | *1 911* | Uychi tumani | 1 702 |
| Chust tumani | 2 342 | Kosonsoy tumani | 1 674 |
| Pop tumani | 2 047 | Yangiqo‘rg‘on tumani | 1 481 |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 1 938 | Norin tumani | 1 426 |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | 1 865 | Mingbuloq tumani | 1 320 |

# Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbatan (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

381
19,0 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

693
13,6 %

Sanoat

168
10,2 %

Qurilish

1 425
15,6 %

Savdo

148
14,9 %

Tashish va saqlash

187
14,5 %

Yashash va ovqatlanish

89
24,9 %


Axborot va aloqa

79
12,8 %

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

461
18,7 %

Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2023-yil yanvar-sentabr oylariida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 3 631 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 3 614 ta;
- yirik korxonalar 17 tani tashkil etdi.

## Shahar va tumanlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Namangan shahar | **915** | 12,5 % | Pop tumani | **254** | 14,9 % |
| *shundan Davlatobod t.* | ***259*** | *15,2 %* | Uychi tumani | **231** | 16,1 % |
| *Yangi Namangan t.* | ***229*** | *13,3 %* | Chust tumani | **224** | 11,1 % |
| Uchqo‘rg‘on tumani | **344** | 20,7 % | Kosonsoy tumani | **220** | 15,9 % |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | **304** | 19,0 % | Namangan tumani | **203** | 13,4 % |
| Chortoq tumani | **292** | 20,0 % | Norin tumani | **203** | 17,3 % |
| Mingbuloq tumani | **255** | 23,7 % | Yangiqo‘rg‘on tumani | **186** | 15,7 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash




Yashash va ovqatlanish




Axborot va aloqa




Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish




Boshqa turlar

Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- oktabr holatiga 23 566 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 12,5 foizga oshdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish – 39,4 foiz, savdo – 36,9 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 17,8 foiz, yashash va ovqatlanish – 17,4 foiz, hududlar kesimida eng ko‘p Uchqo‘rg‘on 54,6 foiz, Pop 52,5 foiz, Norin 39,4 foiz, Chortoq 37,3 foiz, Mingbuloq 33,6 foiz, To‘raqo‘rg‘on 27,7 foiz va Yangiqo‘rg‘on 22,1 foiz tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda.

## Shahar va tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Namangan shahar | 7 349 | Namangan tumani | 1 519 |
| *shundan Davlatobod t.* | *1 703* | Chortoq tumani | 1 458 |
| *Yangi Namangan t.* | *1 719* | Uychi tumani | 1 435 |
| Chust tumani | 2 014 | Kosonsoy tumani | 1 387 |
| Pop tumani | 1 708 | Yangiqo‘rg‘on tumani | 1 182 |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 1 664 | Norin tumani | 1 175 |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | 1 597 | Mingbuloq tumani | 1 078 |

# Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda*







## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

381 — 19,1 %



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

692 — 13,7 %



Sanoat

168 — 10,2 %



Qurilish

1 425 — 15,7 %



Savdo

148 — 15,0 %



Tashish va saqlash

187 — 14,6 %



Yashash va ovqatlanish

89 — 24,9 %




Axborot va aloqa

79 — 12,9 %



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

445 — 18,4 %



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2023- yil yanvar-sentabr oylarida tashish va saqlash sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan 130 tadan 148 taga (o‘sish 18 taga), axborot va aloqa–75 tadan 89 taga (o‘sish 14 taga) ko‘paydi.

## Shahar va tumanlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Namangan shahar | 909 | 12,5 % | Pop tumani | 252 | 14,8 % |
| *shundan Davlatobod t.* | *255* | *15,2 %* | Uychi tumani | 231 | 16,2 % |
| *Yangi Namangan t.* | *229* | *13,4 %* | Chust tumani | 224 | 11,2 % |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 344 | 20,7 % | Kosonsoy tumani | 215 | 15,6 % |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | 302 | 19,1 % | Namangan tumani | 203 | 13,5 % |
| Chortoq tumani | 291 | 20,0 % | Norin tumani | 203 | 17,4 % |
| Mingbuloq tumani | 254 | 23,6 % | Yangiqo‘rg‘on tumani | 186 | 15,8 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

1 992 

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

5 034 

Sanoat

1 646 

Qurilish

9 082 

Savdo

988 

Tashish va saqlash

1 282 

Yashash va ovqatlanish

357 


Axborot va aloqa

613 

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

2 415 

Boshqa turlar

Hududlar kesimida eng ko‘p kichik biznes subyektlari Namangan shahrida (31,1 foiz), Chust (8,5 foiz), Pop (7,3 foiz), Uchqo‘rg‘on (7,1 foiz), To‘raqo‘rg‘on (6,8 foiz), Namangan (6,4 foiz), Chortoq (6,2 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu tumanlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50,0 foizdan ortig‘i faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.

## Shahar va tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Namangan shahar | 7 279 | Namangan tumani | 1 509 |
| *shundan Davlatobod t.* | *1 678* | Chortoq tumani | 1 453 |
| *Yangi Namangan t.* | *1 704* | Uychi tumani | 1 427 |
| Chust tumani | 1 999 | Kosonsoy tumani | 1 381 |
| Pop tumani | 1 698 | Yangiqo‘rg‘on tumani | 1 180 |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 1 659 | Norin tumani | 1 169 |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | 1 581 | Mingbuloq tumani | 1 074 |

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda*

### Shahar va tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Pop tumani | 321 |
| Chust tumani | 275 |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 236 |
| Mingbuloq tumani | 188 |
| Namangan tumani | 181 |
| Namangan shahar | 164 |
| *shundan Davlatobod t.* | *59* |
| *Yangi Namangan t.* | *37* |
| To ‘raqo‘rg‘on tumani | 140 |
| Uychi tumani | 135 |
| Chortoq tumani | 110 |
| Kosonsoy tumani | 101 |
| Yangiqo‘rg‘on tumani | 97 |
| Norin tumani | 82 |




O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.

Baliq ovlash va akvakultura




O‘rmonchilik va yog‘och tayyorlash

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

# Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Shahar va tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Namangan shahar | **1 832** |
| *shundan Davlatobod t.* | ***453*** |
| *Yangi Namangan t.* | ***523*** |
| Namangan tumani | **406** |
| Chust tumani | **399** |
| Kosonsoy tumani | **396** |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | **369** |
| Uychi tumani | **345** |
| Uchqo‘rg‘on tumani | **282** |
| Pop tumani | **261** |
| Norin tumani | **239** |
| Yangiqo ‘rg ‘on tumani | **223** |
| Chortoq tumani | **200** |
| Mingbuloq tumani | **132** |




Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So‘nggi besh yil ichida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat sohasining elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari sonining o‘sish sur’ati 48,0 foizga oshgan.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 18,2 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 96,0 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yil ning mos davriga nisbatan 65,5 foizni), 1,9 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (77,4 foizni), 1,4 foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (78,3 foizni) va 0,7 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash (o‘sish 100,0 foiz) ni tashki etgan.



# Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Shahar va tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Namangan shahar | 484 |
| *shundan Davlatobod t.* | *133* |
| *Yangi Namangan t.* | *122* |
| Uychi tumani | 171 |
| Kosonsoy tumani | 163 |
| Chust t tumani | 131 |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 121 |
| Chortoq tumani | 113 |
| Norin tumani | 99 |
| Pop tumani | 99 |
| Yangiqo‘rg‘on tumani | 86 |
| Namangan tumani | 77 |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | 72 |
| Mingbuloq tumani | 53 |




Namanganda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 51,6 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 69,9 foizni tashkil etgan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 15,1 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 96,6 foizni tashkil etgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 33,3 foiz ulushni va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 59,9 foizni tashkil etdi.



**252** Fuqarolik obyektlarini qurish

**555** Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



**862** Bino va inshootlar qurish

# Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Shahar va tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Namangan shahar | 2 695 |
| *shundan Davlatobod t.* | *548* |
| *Yangi Namangan t.* | *617* |
| Chortoq tumani | 801 |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | 686 |
| Chust tumani | 658 |
| Pop tumani | 660 |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 623 |
| Namangan tumani | 553 |
| Norin tumani | 515 |
| Yangiqo‘rg‘on tumani | 513 |
| Uychi tumani | 489 |
| Mingbuloq tumani | 469 |
| Kosonsoy tumani | 449 |




Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Namanganda faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 9 082 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.

Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 60,3 foiz ulushni tashkil etgan bo‘lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o‘sish sur’ati 76,6 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 29,6 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 87,0 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishida 10,1 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 83,8 foizni tashkil etdi.

**918**
Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash

**2 694**
Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

**5 499**
Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

# Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda*

**Shahar va tumanlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Namangan shahar | 447 |
| *shundan Davlatobod t.* | *97* |
| *Yangi Namangan t.* | *83* |
| Chust tumani | 137 |
| Pop tumani | 123 |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 95 |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | 82 |
| Kosonsoy tumani | 67 |
| Namangan tumani | 64 |
| Yangiqo‘rg‘on tumani | 63 |
| Norin tumani | 62 |
| Mingbuloq tumani | 58 |
| Chortoq tumani | 47 |
| Uychi tumani | 43 |




2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘sish sur’ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 17,4 foizga oshgan. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 6,1 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 93,9 foiz ulushini tashkil etdi.

**78** — Yashash bo‘yicha xizmatlar

**1 210** — Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar





# Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Shahar va tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Namangan shahar | 167 |
| *shundan Davlatobod t.* | *22* |
| *Yangi Namangan t.* | *24* |
| Chust tumani | 31 |
| Pop tumani | 28 |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 27 |
| Namangan tumani | 23 |
| Uychi tumani | 22 |
| Chortoq tumani | 19 |
| Kosonsoy tumani | 18 |
| Yangiqo‘rg‘on tumani | 17 |
| Norin tumani | 14 |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | 13 |
| Mingbuloq tumani | 10 |




2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 18,0 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 76,3 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo‘nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 36,5 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 70,6 foizni tashkil etdi. Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko‘rsatish yo‘nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 45,5 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 77,0 foizni tashkil etdi.



# Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Shahar va tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Namangan shahar | 271 |
| *shundan Davlatobod t.* | *69* |
| *Yangi Namangan t.* | *43* |
| Chust tumani | 57 |
| Kosonsoy tumani | 49 |
| Pop tumani | 46 |
| Namangan tumani | 43 |
| To ‘raqo‘rg‘on tumani | 43 |
| Uychi tumani | 43 |
| Chortoq tumani | 42 |
| Yangiqo‘rg‘on tumani | 33 |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 29 |
| Norin tumani | 27 |
| Mingbuloq tumani | 23 |




Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 619 ta yoki 87,7 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki: 95,1 foiz korxonalar sog‘liqni saqlash yo‘nalishiga to‘g‘ri kelib, o‘sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 94,2 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni 2,5 foizni tashkil etib, o‘sish sur’ati 94,7 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 2,4 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 85,0 foizni tashkil etdi;



# Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Shahar va tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Namangan shahar | 335 |
| *shundan Davlatobod t.* | *105* |
| *Yangi Namangan t.* | *96* |
| Chust tumani | 161 |
| Namangan tumani | 84 |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | 63 |
| Uychi tumani | 65 |
| Pop tumani | 54 |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 54 |
| Yangiqo‘rg‘on tumani | 50 |
| Chortoq tumani | 43 |
| Norin tumani | 32 |
| Kosonsoy tumani | 29 |
| Mingbuloq tumani | 23 |




2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning 3,6 foiz ulushini tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo‘nalishlari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning o‘sish sur’ati 82,5 foizni tashkil etdi;

ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalishining o‘sish sur’ati 89,5 foizni;

pochta va kuryerlik yo‘nalishi o‘sish sur’ati 93,3 foizni tashkil etdi;

havo transporti yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar o‘sish sur’ati 50,0 foizni tashkil etdi;

| Havo transporti | Pochta va kuryerlik faoliyati | Ombor xo‘jaligi va yordamchi transport faoliyati | Quruqlikdagi va quvur transporti |
|---|---|---|---|
| 2 | 14 | 221 | 756 |

## Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

*2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda*




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

# Yangi tashkil etilgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbatan (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**327**
**24,4 %**

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**601**
**15,6 %**

Sanoat

**164**
**11,7 %**

Qurilish

**1 347**
**18,7 %**

Savdo

**141**
**15,9 %**

Tashish va saqlash

**153**
**18,0 %**

Yashash va ovqatlanish

**80**
**27,5 %**


Axborot va aloqa

**64**
**15,2 %**

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**445**
**23,1 %**

Boshqa turlar

**Mas’uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyati hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

## Shahar va tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Namangan shahar | **833** | Mingbuloq tumani | **226** |
| *shundan Davlatobod t.* | ***247*** | Uychi tumani | **220** |
| *Yangi Namangan t.* | ***207*** | Kosonsoy tumani | **203** |
| Uchqo‘rg‘on tumani | **338** | Norin tumani | **196** |
| Chortoq tumani | **285** | Chust tumani | **191** |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | **273** | Yangiqo‘rg‘on tumani | **177** |
| Pop tumani | **228** | Namangan tumani | **152** |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

1 338 

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

3 849 

Sanoat

1 397 

Qurilish

7 208 

Savdo

889 

Tashish va saqlash

851 

Yashash va ovqatlanish

291 


Axborot va aloqa

421 

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

1 929 

Boshqa turlar

Amalda 23 566 ta tijorat korxona va tashkilotlarining 2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar 18 173 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo`yicha korxonalar orasida birinchi o‘rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) qo‘yidagicha bo‘ldi: savdo – 39,7 foiz, sanoat – 21,2 foiz, qurilish – 7,7 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 7,4 foiz.

## Shahar va tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Namangan shahar | **6 067** | Chust tumani | **1 125** |
| *shundan Davlatobod t.* | ***1 457*** | Kosonsoy tumani | **1 113** |
| *Yangi Namangan t.* | ***1 467*** | Namangan tumani | **1 079** |
| Pop tumani | **1 358** | To‘raqo‘rg‘on tumani | **1 059** |
| Chortoq tumani | **1 285** | Norin tumani | **960** |
| Uchqo‘rg‘on tumani | **1 279** | Yangiqo‘rg‘on tumani | **952** |
| Uychi tumani | **1 168** | Mingbuloq tumani | **728** |

# Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

2023- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbatan (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

43
8,3 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

23
3,0 %

Sanoat

4
1,7 %

Qurilish

56
3,6 %

Savdo

6
6,3 %

Tashish va saqlash

12
4,1 %

Yashash va ovqatlanish

7
12,7 %


Axborot va aloqa

13
7,0 %

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

13
3,1 %

Boshqa turlar

**Xususiy korxona** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

2023- yil yanvar-sentabr oyida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 14 taga ko‘paygan.

## Shahar va tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Namangan shahar | 46 | Pop tumani | 13 |
| *shundan Davlatobod t.* | *9* | Kosonsoy tumani | 12 |
| *Yangi Namangan t.* | *15* | Uychi tumani | 9 |
| Chust tumani | 29 | Norin tumani | 6 |
| Namangan tumani | 23 | Uchqo‘rg‘on tumani | 2 |
| Mingbuloq tumani | 17 | Chortoq tumani | 2 |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | 17 | Yangiqo‘rg‘on tumani | 1 |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2023-yil 1- oktabr holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni o‘zaro taqqoslanganda, ikkinchi o‘rinni xususiy korxonalar egallagan bo‘lib. Xususiy korxonalar sonining eng ko‘pi quyidagi hududlarda qayd etilgan Namangan shahar 966 ta, Chust 799 ta va To‘raqo‘rg‘on tumanlarida 311 ta.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 1 541 ta, sanoat – 766 ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 518 ta, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida – 292 ta va qurilish sohasida – 238 ta.

## Shahar va tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Namangan shahar | 966 | Namangan tumani | 302 |
| *shundan Davlatobod t.* | *196* | Pop tumani | 295 |
| *Yangi Namangan t.* | *193* | Kosonsoy tumani | 224 |
| Chust tumani | 799 | Uychi tumani | 221 |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | 311 | Norin tumani | 166 |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 311 | Yangiqo‘rg‘on tumani | 116 |
| Mingbuloq tumani | 303 | Chortoq tumani | 94 |

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

2023- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbatan (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

8
14,0 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

67
18,3 %

Sanoat

22
6,9 %

Savdo

1
16,7 %

Tashish va saqlash

22
16,1 %

Yashash va ovqatlanish

2
28,6 %


Axborot va aloqa

2
18,2 %

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

1
1,9 %

Boshqa turlar

**Oilaviy korxona** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

## Shahar va tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Namangan shahar | 33 | Yangiqo‘rg‘on tumani | 8 |
| *shundan Davlatobod t.* | *3* | Chortoq tumani | 5 |
| *Yangi Namangan t.* | *7* | Kosonsoy tumani | 4 |
| Namangan tumani | 28 | Uchqo‘rg‘on tumani | 4 |
| Pop tumani | 13 | Chust tumani | 4 |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | 13 | Norin tumani | 1 |
| Mingbuloq tumani | 11 | Uychi tumani | 1 |

*2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

57

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

366

Sanoat

10

Qurilish

318

Savdo

6

Tashish va saqlash

137

Yashash va ovqatlanish

7


Axborot va aloqa

11

Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

54

Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra 2019- yilning mos davriga nisbatan 494 taga ko‘paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – 76 tadan 318 taga (o‘sish 242 taga), sanoatda – 223 tadan 366 taga (o‘sish 143 taga), yashash va ovqatlanish – 81 tadan 137 taga (o‘sish 56 taga), qishloq o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 41 tadan 57 taga (o‘sish 16 taga) soninig sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

## Shahar va tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Namangan shahar | 227 | Uchqo‘rg‘on tumani | 61 |
| *shundan Davlatobod t.* | *37* | Chust tumani | 52 |
| *Yangi Namangan t.* | *51* | Kosonsoy tumani | 39 |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | 200 | Pop tumani | 34 |
| Namangan tumani | 122 | Uychi tumani | 29 |
| Yangiqo‘rg‘on tumani | 87 | Mingbuloq tumani | 28 |
| Chortoq tumani | 66 | Norin tumani | 21 |

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda*




### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

2
10,5 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

11
11,5 %

Sanoat

1
9,1 %

Qurilish

11
22,0 %

Savdo

3
50,0 %

Tashish va saqlash

1
16,7 %

Yashash va ovqatlanish

1
100,0%


Axborot va aloqa

1
5,6 %

Boshqa turlar

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi. Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni o‘sish sur'ati 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda 10,7 foizga oshgan.

### Shahar va tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Namangan shahar | 15 | Kosonsoy tumani | 2 |
| *shundan Davlatobod t.* | 2 | Norin tumani | 1 |
| *Yangi Namangan t.* | 2 | To‘raqo‘rg‘on tumani | 1 |
| Pop tumani | 4 | Uychi tumani | 1 |
| Chortoq tumani | 3 | Yangiqo‘rg‘on tumani | 1 |
| Chust tumani | 3 | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

19

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

96

Sanoat

11

Qurilish

50

Savdo

6

Tashish va saqlash

6

Yashash va ovqatlanish

5

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

1



18

Boshqa turlar

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 103,4 foizni tashkil etdi.

Yetakchi o‘rinni 54 ta korxonada to‘liq yoki qisman ulushi mavjud bo‘lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 25,5 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Namangan iqtisodiyotiga o‘z kapitalini kiritayotgan Xitoy halq Respublikasi (ulushi 24,5 foiz), Turkiya (ulushi 15,1 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 6,1 foiz) va Qozog‘iston (ulushi 5,2 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## Shahar va tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Namangan shahar | 83 | Chortoq tumani | 11 |
| *shundan Davlatobod t.* | *22* | Namangan tumani | 10 |
| *Yangi Namangan t.* | *15* | Yangiqo‘rg‘on tumani | 8 |
| Pop tumani | 28 | Norin tumani | 7 |
| Chust tumani | 19 | To‘raqo‘rg‘on tumani | 7 |
| Kosonsoy tumani | 16 | Uchqo‘rg‘on tumani | 6 |
| Uychi tumani | 14 | Mingbuloq tumani | 3 |

# Davlatlar kesimida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda*

| Davlatlar nomi | soni |
|---|---|
| Xitoy Respublikasi | 14 |
| Rossiya Federatsiyasi | 6 |
| Turkiya Respublikasi | 3 |
| Janubiy Koreya Respublikasi | 3 |
| Boshqalar | 6 |

O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo‘yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o‘sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O‘zbekiston hukumati o‘z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko‘paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

## Davlatlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda*

| Davlatlar nomi | soni |
|---|---|
| Rossiya Federatsiyasi | 54 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 52 |
| Turkiya Respublikasi | 32 |
| Janubiy Koreya Respublikasi | 13 |
| Qozog‘iston Respublikasi | 11 |
| Tojikiston Respublikasi | 8 |
| Germaniya Federativ Respublikasi | 6 |
| Qirg‘iziston Respublikasi | 4 |
| Hindiston Respublikasi | 3 |
| Afg‘oniston | 1 |
| Boshqa davlatlar | 46 |

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 117 tasi qo‘shma korxonalar, 95 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

# Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy va qo‘shma korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda*

| xorijiy korxonalar | | qo‘shma korxonalar |
|---|---|---|
| 45 | Namangan shahar | 38 |
| *10* | *shundan Davlatobod t.* | *12* |
| *8* | *Yangi Namangan t.* | *7* |
| 10 | Chust tumani | 9 |
| 9 | Pop tumani | 19 |
| 8 | Kosonsoy tumani | 8 |
| 4 | To‘raqo‘rg‘on tumani | 3 |
| 4 | Uchqo‘rg‘on tumani | 2 |
| 4 | Yangiqo‘rg‘on tumani | 4 |
| 3 | Norin tumani | 4 |
| 3 | Uychi tumani | 11 |
| 2 | Namangan tumani | 8 |
| 2 | Chortoq tumani | 9 |
| 1 | Mingbuloq tumani | 2 |

# Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan qo‘shma va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda*




So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotni jadal o‘zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes hamda sarmoyaviy to‘siqlarni bartaraf etishda qat’iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liq.

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo’lgan axborot-ma’lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- oktabrdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.








# Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.

Namangan viloyati statistika boshqarmasi Statistik registrlarni yuritish bo‘limi
Tel.: 69 227-84-96